

## BUDDAVIYLIK FALSAFASI: KELIB CHIQISHI, ASOSIY TA'LIMOTLARI VA INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Abdimo'minov Boytimur Baxtiyor o'g'li

Tursunpo'latov Muhammad Muhiddin o'g'li

Shermahmatov Otabek Nishonboy o'g'li

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz Filiali talabalari

Mamatqulova Nilufar Xusanovna

**Ilmiy rahbar: Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası v.b, dotsenti (PhD).90.418-30-06. nilufarmamatqulova53@gmail.com**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.19976249>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada buddaviylik falsafasining kelib chiqishi, asosiy g'oyalari va inson hayotidagi o'rnini keng yoritiladi. Siddhartha Gautama tomonidan asos solingan ushbu ta'limot inson azob-uqubatlarining sabablari va ulardan qutulish yo'llarini tushuntiradi. Maqolada buddaviylikning muhim tushunchalari — To'rt muqaddas haqiqat, Sakkiz pog'onali yo'l, karma, samsara va nirvana masalalari batafsil tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Buddaviylik, Buddha, falsafa, nirvana, karma, samsara, dukkha, anitya, anatta, ruhiy ozodlik, Siddhartha Gautama, meditatsiya, ong, axloq.

**Abstract:** This article provides a comprehensive overview of the origin, main ideas, and role of Buddhist philosophy in human life. Founded by Siddhartha Gautama, this teaching explains the causes of human suffering and the ways to overcome it. The article thoroughly analyzes key concepts of Buddhism such as the Four Noble Truths, the Eightfold Path, karma, samsara, and nirvana.

**Keywords:** Buddhism, Buddha, philosophy, nirvana, karma, samsara, dukkha, anitya, anatta, spiritual liberation, Siddhartha Gautama, meditation, mind, ethics.

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматриваются происхождение буддийской философии, её основные идеи и роль в жизни человека. Это учение, основанное Сиддхартхой Гаутамой, объясняет причины человеческих страданий и пути их преодоления. В статье детально анализируются важные понятия буддизма — Четыре благородные истины, Восьмеричный путь, карма, сансара и нирвана.

**Ключевые слова:** буддизм, Будда, философия, нирвана, карма, сансара, дуккха, анитья, анатта, духовное освобождение, Сиддхартха Гаутама, медитация, сознание, этика.

Buddaviylik falsafasi insoniyat tarixida muhim o'rin egallagan diniy-falsafiy ta'limotlardan biridir. U qadimgi Hindistonda paydo bo'lib, inson hayotining ma'nosi, azob-uqubatlarning mohiyati va ulardan qutulish yo'llarini o'rganadi. Bu ta'limot insonni ichki dunyosini anglashga, o'z ustida ishlashga va ruhiy kamolotga erishishga undaydi. Buddizm (Budda nomidan olingan) — jahonda keng tarqalgan dinlardan biri (xristianlik va islom bilan bir qatorda). Unga e'tiqod qiluvchilar taxminan 500 milliondan ortiq. Miloddan avvalgi VI–V asrlarda Hindistonda paydo bo'lgan. Markaziy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari va Uzoq Sharqda tarqalgan. Hozirgi kunda buddizm Shri Lanka, Myanma (Birma), Tailand, Laos, Kambodja, Vyetnam, Tibet, Butan va Yaponiya kabi davlatlarda keng tarqalgan. Buddizm turli davrlarda Xitoy, Hindiston, Koreya va Indoneziyada ham katta ta'sir ko'rsatgan.

**Buddizmda ikki asosiy yo'nalish mavjud: Hinayana va Mahayana.**

Hinayana — qadimgi an'anaviy yo'nalish;

Mahayana — yangicha yondashuvlarga asoslangan yo‘nalish. Mahayana yo‘nalishi ko‘plab maktab va oqimlarga bo‘linadi.

Boshqa dinlardan farqli ravishda buddizmda hech bir o‘zgarimas narsa yo‘q, deb qaraladi. Hatto borliq ham o‘zgaruvchan hisoblanadi. Faqat lahzalar ketma-ketligi mavjud bo‘lib, har biri yo‘qolib, keyingisiga o‘rin beradi. Buddizm ta‘limotiga ko‘ra, inson doimo azob-uqubatga duch keladi va bunga uning o‘zi sabab bo‘ladi. Chunki u o‘z hayotini saqlab qolishga, farovon yashashga intiladi, ammo bu istaklar uni qoniqtirmaydi. Azob-uqubatlardan qutulish uchun inson barcha ortiqcha istaklardan voz kechishi kerak. U yolg‘on gapirmaslik, o‘g‘rilik qilmaslik, boshqalarga zarar yetkazmaslik, axloqiy pok bo‘lishga intilishi lozim. Meditatsiya (ongni oliy haqiqatga yo‘naltirish) orqali inson xotirjamlikka va oxir-oqibat nirvanaga erishadi. Nirvana — azob-uqubatlarning butunlay tugashi demakdir. Bunga erishish uchun inson bir emas, balki bir necha hayot davomida kamol topishi mumkin.

**Buddizm uch asosga tayanadi:**

- Budda (ma‘rifatga erishgan zot);
- Dharma (ta‘limot);
- Sangha (rohiblar jamoasi).



**Ta‘limot qisqacha bayoni:**

1. Azob-uqubat mavjud
2. Azob-uqubat sababi — istak
3. Azob-uqubat tugashi — nirvana
4. Azob-uqubatlardan qutulish yo‘li mavjud (Sakkiz pog‘onali yo‘l)

**Buddaviylikda yana uch muhim tushuncha mavjud:**

- Anitya — hamma narsa o‘tkinchi;
- Anatta — doimiy “men” mavjud emas;
- Dukkha — hayot azoblarga to‘la.

Bu tushunchalar insonni hayotning mohiyatini chuqur anglashga undaydi.

Buddaviylikda “uch asos” — Budda, Dharma va Sanghaga e’tiqod qilish muhim hisoblanadi. Budda — ma’rifatga erishgan zot, Dharma — uning ta’limoti, Sangha esa rohiblar jamoasidir. Sangha jamoasiga qabul qilingan shaxs quyidagi 10 qoidaga amal qiladi:

1. hech kimni o’ldirmaslik;
2. yolg’on gapirmaslik;
3. o’g’rilik qilmaslik;
4. jinsiy hayotdan tiyilish;
5. mast qiluvchi ichimliklardan voz kechish;
6. kechqurun ovqatlanmaslik;
7. ortiqcha bezaklardan foydalanmaslik;
8. ko’ngilochar tadbirlarda ishtirok etmaslik;
9. hashamatli joyda uxlamaslik;
10. pul ishlatmaslik.

Buddizm tarixi 2500 yildan ortiq davrni o’z ichiga oladi. Dastlab unga braxmanizm va jaynizm ta’sir ko’rsatgan. Ashoka davrida buddizm kuchli din sifatida shakllandi. Keyinchalik Hindistonda buddizm zaiflashib, uning o’rnini hinduizm egalladi. Ammo u boshqa hududlarda — Shri Lanka, Janubi-Sharqiy Osiyo, Xitoy, Koreya, Yaponiya va Tibetda keng tarqaldi. Buddizmda kundalik va marosim ibodatlar mavjud. Rohiblar va oddiy insonlar o’z vazifalarini bajaradilar. Oddiy kishilarning asosiy vazifalaridan biri rohiblarga yordam berishdir. XX asrda buddizm dunyoviy shaklda ham rivojlana boshladi. Hozirgi kunda AQSh va Yevropa davlatlarida ham buddizm jamoalari mavjud.



Buddha-Polonnaruwa-Sri-Lanka.

**Buddizm asoschisining shaxsi.** Buddizm asoschisi tarixiy shaxs hisoblanadi. U turli manbalarda Siddhartha Gautama, Shakyamuni, Budda kabi nomlar bilan tilga olinadi. Bu nomlarning ma’nolari:

- Siddhartha — shaxsiy ism
- Gautama — urug’ nomi
- Shakyamuni — “Shakya qabilasidan chiqqan donishmand”
- Budda — “ma’rifat topgan”

**Ta’limoti** - Buddizm ta’limoti uch asosiy qismdan iborat:

1. Axloq:

- o'ldirmaslik
- o'g'rilik qilmaslik
- noto'g'ri xatti-harakatlardan tiyilish
- yolg'on gapirmaslik
- mast qiluvchi moddalarni iste'mol qilmaslik

#### 2. Meditatsiya (Sakkiz pog'onali yo'l):

- to'g'ri tushunish
- to'g'ri niyat
- to'g'ri so'z
- to'g'ri amal
- to'g'ri turmush tarzi
- to'g'ri harakat
- to'g'ri e'tibor
- to'g'ri tafakkur

#### 3. Donolik:

Donolik — narsalarning asl mohiyatini anglashdir. Bu buddizmning eng muhim maqsadlaridan biridir. Nirvana so'zining lug'aviy ma'nosi “so'nish”, “yo'q bo'lish” deganidir. Bu holatda inson barcha istaklardan xalos bo'ladi va ruhiy erkinlikka erishadi.

#### **Xulosa**

Buddaviylik falsafasi inson hayotining mazmuni, azob-uqubatlarning kelib chiqishi va ulardan xalos bo'lish yo'llarini chuqur tahlil qiluvchi ta'limotdir. U insonni nafaqat tashqi dunyoni, balki o'z ichki olamini anglashga, istak va nafsni boshqarishga ham undaydi. Siddhartha Gautama tomonidan asos solingan ushbu ta'limot To'rt muqaddas haqiqat va Sakkiz pog'onali yo'l orqali ruhiy poklanish va donolikka erishish imkonini ko'rsatadi. Buddaviylikning asosiy tushunchalari — karma, samsara va nirvana inson hayotining doimiy o'zgaruvchanligini va ruhiy erkinlikka erishish mumkinligini ifodalaydi. Bu ta'limot insonni axloqiy poklikka, sabr-toqatga va ongli hayot kechirishga yo'naltiradi. Umuman olganda, buddaviylik nafaqat diniy e'tiqod tizimi, balki insonni ma'naviy jihatdan kamolga yetaklovchi chuqur falsafiy ta'limot sifatida ham katta ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Harvey, P. (2013). *An Introduction to Buddhism: Teachings, History and Practices*. Cambridge University Press.
2. Gethin, R. (1998). *The Foundations of Buddhism*. Oxford University Press.
3. Lopez, D. S. (2015). *Buddhism: A Very Short Introduction*. Oxford University Press.
4. Keown, D. (2013). *Buddhism: A Very Short Introduction*. Oxford University Press.
5. Armstrong, K. (2014). *Buddha: A Biography*. HarperOne.
6. O'zME (O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi). “Buddizm” maqolasi. Toshkent.
7. Britannica Encyclopedia. “Buddhism” entry.  
<https://www.britannica.com/topic/Buddhism>